

2024-yil 27-sentabr

"Maxam-Chirchiq" AJda xotin-qizlar bilan muloqot bo'lib o'tdi



Bugun "Maxam-Chirchiq" aksiyadorlik jamiyatiga O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo'mitasi raisi Ozoda Parpiboyeva tashrif buyurdi.

Korxonada majlislar zalida jamiyatda faoliyat yuritayotgan xotin-qizlar bilan muloqot bo'lib o'tdi.

Unda "Maxam-Chirchiq" AJ boshqaruvi raisi X.Saydaxmedov, "O'zkiymyosanoat" AJ boshqaruvi raisi maslahatchisi S.Abduraxmanova hamda korxonada xotin-qizlari ishtirok etishdi.

Tadbirda gender tenglikni ta'minlash, ayollarning jamiyat va davlat hayotidagi o'rnini mustahkamlash muhim masala ekanligi, shu boisdan yurtimizda oila va xotin-qizlarni har jihatdan qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ko'plab xayrli tashabbuslar amalga oshirilayotganligi alohida ta'kidlandi.

Samimiy ruhda o'tgan muloqot jarayonida xotin-qizlar o'zlarini qiziqtirgan barcha savollarga javob olishdi.





"Maxam-Chirchiq" AJ Matbuot xizmati

source:

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati

<https://new.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/maxam-chirchiq-ajda-xotin-qizlar-bilan-muloqot-bo-lib-otdi>